

## O'ZBEK XALQINING XVI–XIX ASRLARDAGI MUSIQA MADANIYATI

**Qilicheva Sevara G'ani qizi**  
**Ilmiy rahbar: Ochilov Z.Z**

**Annotatsiya:** O'zbekiston xalqining boy madaniy merozi ichida musiqa san'ati alohida o'rinn tutadi. Ayniqsa, XVI–XIX asrlarda shakllangan musiqa madaniyati o'zining yuksak badiiy darajasi bilan ajralib turadi. Ushbu maqola mazkur davrning o'zbek musiqa san'atining rivojida yangi bosqichligi, maqom yo'llarining taraqqiyoti, sozanda va hofizlar maktablarining vujudga kelishi, ashulachilik san'atining keng tarqalishi kabi muhim jihatlarini qamrab oladi.

**Kalit so'zlar:** musiqa madaniyati, maqom, xalq ijodi, sozandalar, ashulachilar, an'anaviy musiqa, cholg'u asboblari.

### Asosiy qism:

*XVI–XIX asrlar – O'zbek musiqa madaniyatining yuksalish davri.*

Bu davrda Buxoro, Xiva, Qo'qon kabi yirik madaniyat markazlarida musiqa san'ati rivoj topdi. Ayniqsa, maqom san'ati yuqori darajaga chiqdi. Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maktabi shakllandı. Bu maktablarda o'ziga xos uslub va ijro madaniyati rivoj topdi. XVI–XIX asrlarda o'zbek maqom san'ati o'zining eng yuksak taraqqiyot bosqichiga yetdi. Shashmaqom – oltita maqomdan iborat musiqiy doston bo'lib, u o'zbek musiqa madaniyatining yirik yodgorligidir. Shashmaqom Buxoro, Samarqand, va Xorazmda keng rivojlandi. Bu davrda maqom ijrochilari orasida Hofiz Tohir, Dostonchi Muhammadali kabi mashhur san'atkorlar faoliyat yurita boshladi. Shuningdek, xalq orasida kuy va ashulalar og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tgan. To'y marosimlari, xalq bayramlari va boshqa tadbirlarda kuychi, doirachi, dutorchilar o'z san'atlarini namoyish etganlar. Har bir mintaqaning o'ziga xos kuy va ashulalari bo'lган. Bu musiqalar xalqning ichki kechinmalari, mehnat faoliyati va turmush tarzini ifoda etgan. O'z navbatida, bu davrda tanbur, dutor, sato, rubob, nay kabi cholg'u asboblari keng qo'llanilgan. Sozandalar turli marosimlarda, saroy va xalq orasida ijro etgan. Ular nafaqat

kuylar ijro etgan, balki yangi asarlar yaratgan ham. Ayrim sozandalar o'z mifikatini tashkil qilgan.

XVI–XIX asrlar mobaynida o'zbek xalq hofizligi san'ati juda katta rivojga erishdi. Hofizlar o'zlarining keng diapazonli ovozlari, nozik ohang sezish qobiliyatları va musiqiy bilimlari bilan ajralib turganlar. Ular faqatgina ashula aytuvchi emas, balki xalq og'zaki ijodining targ'ibotchilari ham bo'lgan. Hofizlik san'ati ayniqsa, Farg'ona vodiysi, Buxoro va Toshkentda keng yoyilgan. Hofizlar ko'pincha maqomlar asosida, ya'ni qat'iy tartibda joylashgan ohanglar va she'riy matnlar bilan ijro etgan. Lirik, ishqiy va falsafiy mazmundagi gazallar asosida aytigan ashulalar xalq orasida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Bu davrda Alisher Navoiy, Bobur, Bedil kabi adiblarning she'rlari ko'plab hofizlar tomonidan kuyga solingan. Shuningdek, ayrim hofizlar o'z she'rlarini o'zlarini yozib, bastalaganlar.

Hofizlar ko'pincha doira yoki dutor jo'rligida ijro etgan. Ba'zan ular sozandalar guruhi bilan birga konsertlar bergen. Ustoz-shogirdlik asosida bu san'at an'analari keyingi avlodlarga yetkazilgan.

#### *Marosim musiqasi va ijtimoiy hayot*

O'zbek xalqining ijtimoiy va madaniy hayotida musiqaning tutgan o'rni beqiyos. Musiqa asosan quyidagi marosimlarda muhim rol o'ynagan:

- To'ylar – kuychi va ashulachilarsiz o'tmagan. Kuylar bilan kelin-kuyov tantanali kutib olingan, raqlar ijro etilgan.
- Navro'z bayrami – tabiat uyg'onishi va yangi yil kirib kelishi munosabati bilan kuylangan tabrik qo'shiqlari va bahor kuylarida musiqaning roli beqiyos bo'lgan.
- Hosil bayramlari – mehnatni madh etuvchi kuylar bilan nishonlangan.

Bu marosimlarda musiqachilar nafaqat san'atkori, balki xalq orasida muhim mavqega ega bo'lgan shaxslar sifatida ishtirok etganlar. Musiqa orqali xalq hayoti, kayfiyati, dard-u shodligi aks ettirilgan. Qolaversa, tarixiy manbalar va xalq og'zaki rivoyatlarida ayol hofizlar, sozandalar va raqqosalarning faoliyati haqida ham ma'lumotlar bor. Ayniqsa, Xorazm va Farg'ona hududlarida ayollar kuy chalgan, raqsga tushgan, lirik ashulalar aytganlar.

Mashhur ayol san'atkorlar orasida Madinabonu, Oyxon, Zebinisso kabi ismlar tarixda qayd etilgan. Ularning ijodi orqali o'zbek xalqining nozik didi, ayolona ehtiroslari va go'zallik tushunchalari musiqaga singgan.

Bu an'analar keyinchalik XX asrda Mahmudjon To'ychiyev, Komiljon Otaniyozov, Shorahim Shoumarov kabi hofizlar faoliyatida o'z aksini topgan.

*Bugungi avlod uchun tarixiy saboq*

XVI–XIX asrlardagi musiqa madaniyati – bu nafaqat o'tmish yodgorligi, balki hozirgi avlod uchun saboq, ruhiy boylik va ilhom manbai hisoblanadi. O'zbek musiqa san'atining ushbu davrda shakllangan ko'rinishlarini chuqr o'rganish, ular asosida yangi asarlar yaratish, yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bugungi musiqa ta'limining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Yosh hofizlar, sozandalar va bastakorlar uchun maqom, xalq qo'shiqlari, ashulalar bebaho tajriba mакtabidir. Shu bois bu davr musiqasini o'rganish nafaqat san'at, balki milliy ongni mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Sultonov B. O'zbek musiqa madaniyati tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2005.
3. Usmonov H. Shashmaqom va maqom san'ati asoslari. Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2011.
4. Rashidov A. Xalq musiqasi va og'zaki ijod. Toshkent: Fan, 2000.
5. G'ulomov A. O'zbekiston madaniyati tarixidan lavhalar. Toshkent: O'qituvchi, 1998.
6. Ganieva G. Maqomlar va ularning turlari. Toshkent: San'at, 2016.
7. Qodirov Z. Sharq musiqa madaniyati. Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.
8. UNESCO. Shashmaqom – og'zaki va musiqiy an'analar. Parij, 2003.
9. Raxmonqulov A. Milliy cholg'u asboblari tarixi. Samarqand, 2019.
10. Xasanov R. O'zbek hofizlik san'ati asoslari. Toshkent: Adabiyot, 2022.